

HY3223 Toshkent - Antaliya reysi to'g'risida rasmiy xabar

2022 11 November

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati quyidagilarni ma’lum qiladi:

Bugun, 2022-yil 11-noyabr kuni HY3223 Toshkent - Antaliya qatnovi jadval bo'yicha soat 10:10 da uchib ketdi. A320 havo kemasi sardori havo kemasining texnik sabablarga ko'ra ortga qaytishga majbur bo'ldi va soat 10:54 da havo kemasi Toshkent aeroportiga qaytib kelib qo'ndi. Muhandis-texnik tarkibining tekshiruvidan so'ng havo kemasi parvoz qilishiga ruxsat berildi. Shundan so'ng A320 havo kemasi soat 12:30 da o'z yo'nalishi bo'yicha jo'nab ketdi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo'lovchilar xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.